

BOLALARGA EKOLOGIK TA'LIM BERISH USULLARI

Murotqobilova Mahliyo Anvar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti, o'zbek tili va adabiyoti kabinet mudiri

Annotatsiya: Maqolada dunyoda ro'y berayotgan ekologik global muammolar to'g'risida shuningdek, bunday ekologik muammolarni bartaraf qilish maqsadida butun dunyo davlatlari qatorida yurtimizda ham ko'pgina qaror va farmonlar joriy qilinmoqda, amaliy ishlar bajarilmoqda. Ekologik muammolar dolzarbligini tushungan holda bolalarning yoshligidan ularning ongida ekologik ta'lism-tarbiyani to'g'ri yo'lga quyish, maqsadga erishish uchun qo'yilgan muhim qadamlardan biri sanaladi. Zero, bolalar bizning kelajagimiz, bu kelajakni qanday yaratish bizning qo'limizda.

Kalit so'zlar: Ekologik muammolar, Avesto, ekologik ta'lism-tarbiya, "Yer sayyorasi umumiy uyimiz" (parsial dastur), ekologik metodlar.

Аннотация: В статье в нашей стране наряду со странами мира вводятся многие решения и постановления, а также проводятся практические работы по устранению подобных экологических проблем в мире. Понимая актуальность экологических проблем, считается одним из важных шагов по внедрению экологического воспитания в сознание детей с раннего возраста и достижению поставленной цели. Ведь дети – это наше будущее, и как создать это будущее – в наших руках.

Ключевые слова: Экологические проблемы, Авеста, экологическое образование, «Земля – наш общий дом» (частичная программа), экологические методы.

Abstract: In the article, many decisions and decrees are introduced in our country along with the countries of the world, and practical works are being carried out in order to eliminate such environmental problems in the world. Understanding the urgency of environmental problems, it is considered one of the important steps to put environmental education in the minds of children from a young age and to achieve the goal. After all, children are our future, how to create this future is in our hands.

Key words: Ecological problems, Avesta, ecological education, "Earth is our common home" (partial program), ecological methods.

Hozirgi davrga kelib ekologik muammolarning yildan-yilga soni ko'payib bormoqda sabablari turlicha. Asosiy ekologik muammolar quyidagicha:

- Aholi sonining ko'payib borishi;
- Energiya resurslari muammolari;
- Sayyoraning global ifloslanishi;
- Bioxilma-xillik va o'rmonlarni kesish;

- Global isish;
- Cho'llanish¹.

Bunday muammolarni butunlay bartaraf etish mushkul, lekin ularni qamrof darajasi foizini qisqartirish albatta o‘zimizning qo‘limizda. Ekologik muammolar hozirgi davrda emas balki qadim-qadimdan mavjuddir, jumladan 3000 ming yil avval yaratilgan Avestoda tabiatni asrash, tozalikka, suv, o‘tloq va yerlarni iflos qilmaslik, hayvonlarga ozor bermaslik va boshqalar bitilgan. Ekologiyaga bo‘lgan munosabat allomalarimizni ham befarq qoldirmagan, jumladan: Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino Ibn Sino, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarimizning o‘z fikri va qarashlari mavjud.

Yurtimizda ekologiyani muhofaza qilish maqsadida yetarli qaror va farmonlar tasdiqlangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrda “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5863-son farmoni qabul qilindi², bundan ko‘zlangan maqsad, Yurtimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta’minlash sohasida izchil ishlar olib borishdir. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori tasdiqlandi o‘shbu qarorda uzlusiz ta’lim tizimiga xususan, muktabgacha ta’lim tizimiga ham ekologik ta’limni joriy etish bolalarning yoshligidan qalbiga, ongiga ekologik ta’lim-tarbiyani singdirib borish zarurligi bayon qilingan.³

Muktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta’lim berish maqsadida “Yer sayyorasi umumiyligi uyimiz” (Ekologik ta’lim va tarbiya berish bo‘yicha muktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun parsial dasturi) 2022-yilda yaratilgan bo‘lib, dasturda muktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berish bo‘yicha xalqaro tajribalar, umumpedagogik tamoyillar, rivojlanish sohalari kompetensiyalari va boshqalar tarbiyachi va bolalar uchun kerakli ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Muktabgacha yoshidagi bolalar e’tiborini jalb qilish ularning bilimini oshirish katta mashaqqat kasb etadi, shu sababdan ekologik ta’lim berishda turli xil ta’lim metodlaridan va ta’lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq, shuningdek ularning ekologik qiziqishini, bilimini yanada oshirishga yordam beradi. Metod to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak, metod yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib “bilish, nazariya, ta’limot”

¹ <https://eurodomik.ru/uz/penoblok/vse-globalnye-ekologicheskie-problemy-ekologicheskie-problemy-i-ih.html>

² <https://lex.uz/ru/docs/-4574008>

³ <https://lex.uz/ru/docs/-4354743?ONDATE2=28.05.2019&action=compare>

degan ma'nolarni bilidirib – voqelikni amaliy va nazariy egallash, uni o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar ko'rsatish, usullar majmuasi, bilimlarni yaratish va asoslash usulidir⁴

O'qitish usullari quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- o'qitishning maqsadliligi;
- mazmunni o'zlashtirish yo'llari;
- ishtirokchilarning jarayonda o'zaro ta'siri va b.

Tabiat bilan tanishtirish metodlari 3 ta asosiy guruhlarga ajraladi: Vizual, amaliy va og'zaki usullar va ular quyidagicha farqlanadi:

1. Vizual usul-tabiatni kuzatish, rasmlar, modellar, filmlar va slaydlar namoyishini tomosha qilish orqali bolalarda ekologik tasaffur uyg'onadi;

2. Amaliy usul-o'yin bolalar hayotidagi eng maroqli jarayon, mehnat, elementar tajribalar. Bu usullardan foydalanish bolalarda tabiatga qiziqish, fikrlash, jamoada o'zaro birdamlik xislatlarini boyitadi.

3. Og'zaki usul-suhbatlar, tarbiyachi tomonidan tabiat tarixi haqida o'qib berish, bolalarning tabiat to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish bilan bir qatorda ularning og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi, [1].

Vizual usul va uning turlari haqida to'xtalamiz. Kuzatish bu - tabiat jismlarini shuningdek tabiatda ro'y berayotgan hodisalaga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyatidir, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqatni talab etadi. Bu to'g'risida K.D.Ushinskiy shunday degan: "Haqiqiy insoniy, aqliy nutq, to'g'ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko'rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi". Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda, tabiatdagi narsa va hodisalarni ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik shuningdek tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi. Tarbiyachi bolalarga ekologik ta'lim berishda kuzatish usulidan keng foydalanadi [2]. Bolalarga tarqatma materiallarni tarqatish orqali ularda tabiat to'g'risida tasavvur hosil qilinadi. Bolalar hozirgi kunda texnikaga juda qiziqishadi shu sababdan ularga tabiat haqida filmlar, slaydlarni namoyish qilib turilsa ularning qiziqishi va bilimi ancha ortadi.

Amaliy usul va uning turlari. O'yin - bu bolalarning sevimli, jismoniy va aqliy rivojlanishiga yordam beruvchi muhim usullardan biridir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda: didaktik, harakatli va ijodiy o'yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o'yinlar: predmetli, stol-bosma og'zaki va b. o'yinlardan kiradi. Predmetli o'yinlar bu barglar, urug'lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o'ynaladigan "Ajoyib

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Metod>

qopcha”, “Mevalar va ildizlar”, “Bu butoqda kimning bolakaylari” shu kabi o‘yinlardir. Bu o‘yinlar orqali bolalarda xususiyat va belgilar haqida tasavvurlar kengayib boradi.

Stol-bosma o‘yinlariga “Yilning to‘rt fasli”, “Kichkintoylar”, “Mevalar” va “O‘simpliklar” va shu kabilar kiradi. Bu o‘yinlar bolalarning o‘simplik, hayvon, jonsiz tabiat hodisalari hamda aytilayotgan so‘zga qarab predmetni tasvirlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Bu o‘yinlar kam sonli bolalar bilan o‘tkaziladi.

Harakatlari o‘yinlar. Tabiatshunoslikka oid harakatli o‘yinlar hayvonlarning xatti-harakati va hayot tarziga taqlid qilish bilan amalga oshiriladi. Bularga “Ona tovuq va jo‘jalar”, “Mushuk va sichqon”, “G‘ozlarim” shu kabi o‘yinlar kiradi.

Ijodiy o‘ynlarga tabiiy materiallardan foydalanib amalga oshiriladigan o‘yinlar kiradi ya’ni qum, loy, mayda toshchalar, so‘ta va shu kabilar bilan o‘ynaladigan o‘yinlardir.

Mehnat bu bolalarning hayotida ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega jarayondir. Bolalar mehnat qilayotganida unga nisbatan mas’uliyat hissi shakllanadi. Mehnat bolalarning sensor tarbiyasini shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnat jarayonida bolalar o‘simpliklarni yog‘ingarchilikka, namlikka, issiqlikka va tuproqning xususiyatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini bilib olishadi, shuningdek hayvonlarni qanday parvarish qilish, ularga mehr ko‘rsatish kabi ijobjiy xislatlari shakllanadi. Mehnat orqali bolalarda tabiatga qiziqish, mehnatsevarlik, kuzatuvchanlik, jamoaviy harakat qilish, bir-biriga yordam berish ko‘nikmasi shakllanadi.

Og‘zaki uslub ya’ni suhbatlar - bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi usul sifatida - pedagoglar tomonidan turli didaktik maqsadlarda qo‘llanadi:

- bo‘lajak faoliyatga (kuzatish, ekskursiyadan oldin) qiziqishni rivojlantirish;
- bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini aniqlashtirish, chuqurlashtirish, umumlashtirish va tizimlashtirish, tabiatga bo‘lgan munosabatni shakllantirish.

Har bir suhbatda bolalar nutqini rivojlantirish vazifasi ma’lum darajada o‘z yechimini topadi. Tabiat to‘g‘risidagi suhbatlar odatda quyidagi turlarga bo‘linadi:

- o‘rnatiluvchi;
- evristik;
- yakuniy.

O‘rnatiluvchi suhbat pedagogga bolalarning diqqatini tortishga, bo‘lajak faoliyatga qiziqish uyg‘otishga, ilgari olingan bilimlar va bo‘lajak ekskursiya, kuzatuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish uchun mavjud tajribani faollashtirishga yordam beradi. Evristik suhbat tafakkur qilish orqali turli xil tabiat hodisalarining sabablarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bunday suhbat bolalarning kuzatish jarayonida olgan bilimlari asosiga quriladi. U tabiatda mavjud bo‘lgan munosabatlar to‘g‘risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, bolalar tomonidan yangi bilimlarni beruvchi vazifalarni mustaqil ravishta hal qilishga qaratilgan. Yakuniy suhbat bolalarning kuzatish, o‘yinlar, badiiy asarlar mutolaasi, mehnat qilishga jarayonida olgan tabiat haqidagi tushunchalar ma’lum darajada to‘plangach va faqat bu

tushunchalar barcha bolalar tomonidan o‘zlashtirilishi sharti bilan o‘tkaziladi. MTTda ekologik ta’lim va tarbiya berish bo‘yicha loyihaviy usul – optimal, innovatsion va istiqbolli usul sifatida tan olingan loyiha usuli MTTning ta’lim-tarbiya jarayonida loyihaviy faoliyat hamkorlik xarakteriga ega bo‘lib, unda MTTning tarbiyalanuvchilari va pedagoglari, shuningdek, ota-onalar va boshqa oila a’zolari ishtirot etadilar. Ekologiya sohasidagi loyihaviy faoliyat tabiat to‘g‘risidagi bilimlarni hosil qilishga, ijobjiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik muammolarga qiziqishini va faol yaratuvchanlik faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishga, tabiatga nisbatan qadriyat bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalashga, ekologik bilimlarni amaliy qo‘llashga qaratilgan. Loyihaviy faoliyat yordamida bolalarning ekologik tushunchalari va bilimi kengayadi va boyiydi, tabiatdagi o‘zaro munosabatlarni bilishga bo‘lgan qiziqishi rivojlanadi, tabiat bilan muloqat qilishda his-tuyg‘ular jo‘sh uradi, artof-muhitni muhofaza qilish faoliyati bo‘yicha ko‘nikma va layoqati shakllanadi. Loyihaviy usul tufayli bolalar faoliyatining turli sohalari va turlarini (tadqiqot, mehnat, tasviriy, kommunikativ, o‘yinli) birlashtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof olamning yaxlit manzarasi shakllanadi. Bolalarning guruh bilan va individual tarzda ishlashi ularga o‘zini namoyon qilish imkoniyatini beradi [3].

Xulosa qilib aytganda ekologik vaziyat yildan-yilga yomonlashib bormoqda, turli xil virusli kasalliklar kelib chiqmoqda shu sababdan ekologik ta’lim berishni bolalarning yoshligidan boshlab ularning ongida shakllantirib borish lozimligi “Ilk qadam” davlat dasturlarida hamda yuqorida aytganimizdek 2019-yil 27-maydagи VM-434-soni “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topgan. Bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya erish maqsadida dasturlar yaratilmoqda. Ekologik ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yetkaza berish tarbiyachi, ota-onsa va mahallalarga bog‘liqdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. С.А.Суркина “Экологическое образование дошкольников” «Саратовский источник», 2011. 33-34-с.
2. Ш.А.Содикова, М.А.Расулхўжаева. “БОЛАЛАРНИ ТАБИАТ БИЛАН ТАНИШТИРИШ МЕТОДИКАСИ (Ўқув қўлланма) ТОШКЕНТ – 2013. 38-39-с.
3. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Rizayeva X.U., Kuryayeva I.V., Nekrasova Y.A., Shivaldova N.S., Xaziyeva L.Z. “Yer sayyorasi umumiyl uymiz” (Ekologik ta’lim va tarbiya bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun parsial dastur). Toshkent-2022-yil, 34-35-с